

BOBOTOG` TIZMASI FLORASIDAGI POACEAE OILASI VAKILLARI**Sh.U.Mardonov**

DTPI o'qituvchisi

Mamasodiqov Sodiqjon

Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397667>

Annotatsiya. O'zbekiston o'zining geografik joylashuvi tufayli noyob biologik xilmaxillikka ega. Ekotizimlar va ular bilan bog'liq yashash joylarining bunday xilma-xilligi turlarning boyligini anglatadi. Mamlakatimizda 4800 dan ortiq o'simlik turlari va 15000 dan ortiq hayvonlar turlari qayd etilgan, ular orasida noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan flora va fauna turlari mavjud. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan Bobotog` tizmasi florasidagi Poaceae oilasi vakillari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ekotizim, flora, ex-situ, Poaceae, Ko'hitang Kofarnihon, Zarkosa.

**REPRESENTATIVES OF THE POACEAE FAMILY IN THE FLORA OF THE
BOBOTOG RANGE**

Abstract. Due to its geographical location, Uzbekistan has a unique biological diversity. This diversity of ecosystems and associated habitats means species richness. More than 4,800 species of plants and more than 15,000 species of animals have been recorded in our country, among them there are rare and endangered species of flora and fauna. In this article, Poaceae in the flora of the Bobotog ridge, included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan information about family members is provided.

Key words: Ecosystem, flora, ex-situ, Poaceae, Kohitang Kofarnihon, Zarkosa.

ПРЕДСТАВИТЕЛИ СЕМЕЙСТВА РОАСЕАЕ ВО ФЛОРЕ РЯДА БОБОТОГ

Аннотация. Благодаря своему географическому положению Узбекистан обладает уникальным биологическим разнообразием. Разнообразие экосистем и связанных с ними мест обитания означает видовое богатство. В нашей стране зарегистрировано более 4800 видов растений и более 15 000 видов животных, среди них редкие и исчезающие виды флоры и фауны. В данной статье Poaceae во флоре хребта Боботог, входящих в Красный. В Книге Республики Узбекистан предоставлена информация о членах семьи.

Ключевые слова: Экосистема, флора, ex-situ, Poaceae, Кохитанг Кофарнихон, Заркоса.

Kirish. Dunyoda inson tomonidan tabiiy ekotizimlarni keng o'zlashtirilishi va ekologik

muhitni buzilishi flora obyektlari xilma-xilligining qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'rinda, o'simlik turlarini saqlab qolishning global strategiyasi sifatida ma'lum hudud floralari holatini baholovchi samarali biohujjatlashtirish amaliyotini ishlab chiqish zarur sanaladi. Jahonda, mahalliy va milliy floralar xilma-xilligini aniqlash, himoyaga muhtoj turlarini saqlab qolish va muhofazalashga qaratilgan xalqaro dasturlarni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hozirda respublikamizda mahalliy flora tarkibidagi turlar xilma-xilligini aniqlash va ularni muhofazalashga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada, jumladan, respublika florasida ma'lumotlarining elektron bazasi yaratildi, viloyatlar kadastrini yuritish tizimi yo'lga qo'yildi va kamyob turlarni *ex-situ* usulda saqlab qolish amaliyoti joriylashtirildi.

Tadqiqotlarimiz Bobotog' tizmasining florasida kiruvchi Poaceae oilasiga mansub turlarning tarqalishini aks ettiruvchi to'rt tizimli xaritalar bilan ishlash, kamyob, yo'qolib borayotgan va endem turlarning tarkibini aniqlash va o'sish maydonlarini xaritalari bilan tanishish hamda floraning keng ko'lamli tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Bobotog'-Surxondaryo viloyatining sharqida joylashgan tog' tizmasi. O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari chegarasida, Surxondaryo va Kofarnihon daryolari oralig'ida shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon Amudaryo sohiligacha cho'zilgan. Uzunligi qariyb 125 km, eni 30-40 km ga yetadi. Bu tog' Surxondaryo geografik okrugining sharqida joylashgan bo'lib, ancha yemirilib, pasayib qolgan. Eng baland cho'qqisi-Zarkosa tog'i bo'lib, balandligi 2290 m ni tashkil etadi. U yerning o'rtacha balandligi 1200-1500 metrga teng. Bobotog' okrugi relyefi Hisor-zarafshon okrugi relyefidan tubdan farq qiladi. Hududda dengiz sathidan 800-900 m balandliklarda na'matak, zirk, bodom va pistazorlar uchraydi. Undan baland joylarida (Besharcha, Zarkosa tog'lari) archazorlar bor. Shuningdek, zarang, qizilquloq, mingbosh, tikanli buta, itburun o'simliklarini ham uchratish mumkin.

Poaceae oilasining 3 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bo'lib, ulardan bittasi Bobotog' tog' tizmasida uchraydi.

Buxoro Po'fanagi

Maqomi . O'zbekistonda kam uchraydigan, Janubiy Pomir Oloyda o'sadigan endemik o'simlik. **Qisqacha tavsifi**. Tugunagi yumaloq yoki uzunchoq ko'rinishdagi ko'p yillik o't. Ildizoldi barglari bandli, och yashil, yumaloqyuraksimon, uch karra bo'lingan, siyrak tukli. Yaprog'ining yon bo'laklari bandsiz, o'rta qismidagilari esa qisqa bandli. O'rta barglari 3 ta, uch karra bo'lingan. Gulpoyalar 3 ta. Gullari yirik, diametri 3-4 sm, tik turuvchi, ochiq, likopchasimon. Gulkosa si qizil, ichki tomoni yaltiroq, tashqi tomoni yotiqtukli. Urug'i qalin tukli. Aprel-iyun oylarida gullab, meva beradi.

Tarqalishi. Surxondaryo viloyati: Ko'hitang tizmasida Shalqonsoy atrofi, Bobotog' tizm

asida tarqalgan (Tojikistonda ham uchraydi). O'sish sharoiti. Tog' yonbag'ir

laridagi sarg'ish tusli va mayda zarrali tuproqlarda hamda tog' etaklaridagi ola tuproqlarda o'sadi. Soni. Tabiatda kam tarqalgan, to'p-to'p holda uchraydi. Ko'payishi. Urug'idan va vegetativ yo'l bilan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Gul va tugunaklarining mahalliy aholi tomonidan yig'ib olinishi va chorva mollari boqilishi natijasida kamayib bormoqda.

Madaniylashtirilishi. 1962 yildan buyon O'zR FA Botanika bog'ida o'stiriladi.

Muhofaza choralari. Tabiatda mavjud populyatsiyalari qat'iy nazorat ostiga olinishi zarur. Bobotog' Milliy tabiat bog'ida muhofaza qilinadi.



Xulosa qilib aytish mumkinki, Kuhitang tizmasi o'simliklarining biomorf turlarining xilma-xilligi tizmadagi muhit omillarining xilma-xilligi natijasidir. Turlarning tik mintaqalar bo'yicha taqsimlanishida, tog'li hududlardagi o'simlik turlarining xilma-xilligi nafaqat o'simlik dunyosi qoplagan hududning kattaligiga, balki dengiz sathiga nisbatan joylashishiga, tik yerlarning soniga va yerning geomorfologik tuzilishiga ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun tog' florasini tahlil qilish, albatta, tik mintaqalarda turlarning tarqalishini o'rganishni taqozo etadi. O'simliklar olamini muhofaza qilish, ularni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.

REFERENCES

1. Алехин В.В. География растений. – М.: Сов. книга, 1938. – 104 с.
2. Ибрагимов А.Ж., Тожибаев К.Ш. Тюльпаны (*Тулпана Л.*) Сурханского заповедника (хребет Кугитанг) // Узб. биол. журн. – Ташкент, 2008. – № 2. – С. 31-36.
3. Sh.Mardonov., D.Sodiqova "Bobotog' Milliy tabiat bog'i" Universal journal of academic and multidisciplinary research. Volume 1 issue 8.

4. Сурхон кўриқхонасининг табиат солномаси – 2001. – Шеробод шаҳри, 2002. – 22 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби. – Тошкент: Чинор ЭНК, 2019. Т.1. – 335 б.